

Surxondaryo viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-aprel holatiga, Surxondaryo viloyatining doimiy aholisi soni **2 959,8** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **2,4** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **18,4** ming nafarni, vafot etganlar **3,2** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **15,2** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar mavjud emas viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **8** kishini, qayd etilgan nikohlar **4,2** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,7** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 959,8	ming kishi
Tug'ilganlar soni	18,4	ming kishi
Vafot etganlar soni	3,2	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	-	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	8	kishi
Nikohlar soni	4,2	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	0,7	ming birlik

II. Doimiy aholi soni


Surxondaryo viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, **2 959,8** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **68,1** ming kishiga yoki **2,4** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 069,1** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **36,1** %), qishloq joylarda esa **1 890,7** ming kishi (**63,9** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 461,6** ming kishini (**49,4** %), erkaklar esa **1 498,2** ming kishini (**50,6** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	2 891,7	2 959,8	102,4
Termiz sh.	203,0	208,6	102,8
tumanlar:			
Oltinsoy	193,6	198,3	102,4
Angor	144,5	147,8	102,3
Bandixon	83,4	85,7	102,8
Boysun	125,1	127,5	101,9
Muzrabot	154,2	157,5	102,1
Denov	422,4	432,8	102,5
Jarqo'rg'on	239,6	245,2	102,3
Qumqo'rg'on	256,8	262,8	102,3
Qiziriq	124,6	127,4	102,2
Sariosiyo	229,0	233,9	102,1
Termiz	85,2	87,8	103,1
Uzun	188,8	193,3	102,4
Sherobod	211,8	215,8	101,9
Sho'rchi	229,7	235,4	102,5

Surxondaryo viloyatida 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **147,3** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **3,3** kishiga ortgan (2024-yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga **143,9** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **18,4** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **25,3** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** nafarga ko'paygan.

Vafot etganlar soni **3,2** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **158** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **18,4** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **9,5** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,8** %), qiz bolalar soni **8,9** ming kishini (**48,2** %) va shahar joylarida **6,1** ming kishini (**33,2** %), qishloq joylarida **12,3** ming kishini (**66,8** %) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **3,2** ming kishini, shundan erkaklar **1,7** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **53,8** %), ayollar **1,5** ming kishini (**46,2** %) va shahar joylarida **1,1** ming kishini (**33,4** %), qishloq joylarida **2,1** ming kishini (**66,6** %) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **4,2** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,8** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3 ming** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **0,7 ming** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **4,2** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,5** ming birlikni (**34,5 %**), qishloq joylarida **2,7** ming birlikni (**65,5 %**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **0,7 ming** birlikni, shundan shahar joylarida **0,3** birlikni (**42,1 %**), qishloq joylarida **0,4** birlikni (**57,9 %**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **3 073** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **3 073** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar mavjud emas.

Ko'chib ketganlar jami soni **4 002** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **3 994** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **8** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Surxondaryo viloyati	3 073	3 073	-	4 002	3994	8
Termiz sh.	988	988	-	541	539	2
tumanlar:						
Oltinsoy	74	74	-	173	173	-
Angor	210	210	-	199	199	-
Bandixon	77	77	-	122	122	-
Boysun	85	85	-	204	204	-
Muzrabot	150	150	-	295	294	1
Denov	234	234	-	315	313	2
Jarqo'rg'on	158	158	-	350	350	-
Qumqo'rg'on	155	155	-	306	304	2
Qiziriq	113	113	-	194	194	-
Sariosiyo	100	100	-	253	253	-
Termiz	385	385	-	296	296	-
Uzun	78	78	-	207	207	-
Sherobod	168	168	-	314	313	1
Sho'rchi	98	98	-	233	233	-

Jami ko'chib kelganlar va jami ko'chib ketganlar soni ming, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
A. Astanaqulov
(55) 451-81-00 (7570)
